


2021- yil yanvar-aprel oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 1290,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish
tashkilotlari




Kichik korxonalar va
mikrofirkmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




2021- yilning yanvar-aprel oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 174,4 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan oʻsish surʼati 128,6 % ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,7 % punktga koʻpayib, 13,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qoʻngʻirot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 55,2 %, yoki 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 141,7 %), Taxiatosh (ulushi 39,7 %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 200,0 %), va Toʻrtkoʻl tumani (ulushi 32,1 %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 20,4 marta koʻp)ga toʻgʻri



55,2

Qoʻngʻirot

39,7

Taxiatosh

32,1

Toʻrtkoʻl



2021- yil yanvar-aprel

QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi



2021- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **73,5 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,9 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **97,2 %** ni tashkil etgan holda **948,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, % da




Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri 436,2 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 87,9 %, Mo'ynoq tumani (89,3 mlrd. so'm, ulushi 94,0 %), To'rtko'l (60,1 mlrd. so'm, ulushi 58,5 %) va Qo'ng'iro't (48,5 mlrd. so'm, ulushi 38,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 13,0 % ni tashkil etdi yoki 167,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **104,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1186,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **8,1 %** va **91,9 %** ni tashkil etdi.





2021- yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1290,5	101,5	100,0
Nukus sh.	496,4	103,9	38,5
tumanlar:			
Amudaryo	43,0	108,3	3,3
Beruniy	43,6	100,1	3,4
Bo'zotov	20,2	100,2	1,6
Qorao'zak	22,3	100,0	1,7
Kegeyli	23,2	95,6	1,8
Qo'ng'iro't	126,2	101,9	9,8
Qonliko'l	19,9	89,9	1,5
Mo'ynoq	95,0	100,3	7,4
Nukus	51,0	82,1	4,0
Taxiatosh	66,3	125,1	5,1
Taxtako'pir	26,1	96,5	2,0
To'rtko'l	102,9	100,8	8,0
Xo'jayli	36,2	80,1	2,8
Chimboy	30,3	116,3	2,3
Shumanoy	25,6	102,3	2,0
Ellikqal'a	62,3	100,4	4,8

2021- yil yanvar-aprel

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

69,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,2 % i yoki **893,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **90,6** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 51,9 % ni tashkil etdi.

51,9 %

67,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **640,4** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 67,5 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **162,0** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.

96,8 %



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil yanvar-aprel

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,3 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga kamayib, **73,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6 %** punktga ko'payib, **22,4 %** ni tashkil etdi.



2020-yil yanvar-aprel

2021-yil yanvar-aprel




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **23,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **0,4 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,6 %** (**0,4 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-aprel 2021- yil yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **10,9 %** punktga ko'paydi va **29,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **70,5 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **10,9 %** punktga kamaydi.



2021- yil yanvar-aprel

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-aprel oyida


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1290,5	174,4	948,9	167,2
Nukus sh.	496,4	40,8	436,2	19,4
tumanlar:				
Amudaryo	43,0	-	19,4	23,6
Beruniy	43,6	-	23,4	20,2
Bo'zotov	20,2	-	19,7	0,5
Qorao'zak	22,3	0,1	21,6	0,6
Kegeyli	23,2	1,4	13,2	8,6
Qo'ng'iro't	126,2	69,7	48,5	8,0
Qonliko'l	19,9	0,1	13,1	6,7
Mo'ynoq	95,0	1,3	89,3	4,4
Nukus	51,0	0,1	35,0	15,9
Taxiatosh	66,3	26,3	31,6	8,4
Taxtakopir	26,1	-	23,9	2,2
To'rtko'l	102,9	33,1	60,1	9,7
Xo'jayli	36,2	0,1	32,9	3,2
Chimboy	30,3	-	17,1	13,2
Shumanoy	25,6	0,1	22,3	3,2
Ellikqal'a	62,3	1,3	41,6	19,4


2021- yil yanvar-aprel

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining respublikadagi ulushi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 38,5 %, Qo'ng'iro't tumani – 9,8 %, To'rtko'l tumani – 8,0 % va Mo'ynoq tumani – 7,4 % ga to'g'ri keldi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar-aprel

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**